

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SATIYEV SHUXRAT KOMILOVICH

**FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK MAHORATLARINI,
EMOTSIONAL HOLATLARGA BOG‘LIQLIGINI BAHOLASHNING
METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(16-17 yoshli o‘smirlar misolida)**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Satiev Shuxrat Komilovich

Futbolchilarning texnik-taktik mahoratlarini, emotsional xolatlarga bog‘liqligini
ba holashning metodik asoslarini takomillashtirish.....3

Сатиев Шухрат Комилович

Совершенствование методических основ оценки зависимости технико-
тактического мастерства футболистов от эмоциональных состояний.....31

Satiev Shukhrat Komilovich

Improving the methodological foundations for assessing the technical and tactical
skills of football players and its dependence on emotional states.....61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List published works65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SATIYEV SHUXRAT KOMILOVICH

**FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK MAHORATLARINI,
EMOTSIONAL HOLATLARGA BOG‘LIQLIGINI BAHOLASHNING
METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(16-17 yoshli o‘smirlar misolida)**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.3 PhD/Ped677 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertasiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan
Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz tillarida (rezyume) Ilmiy kengash veb saxifasining (w.w.jtsu.uz) "Ziyonet" portali (w.w.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Azizov Sabitxan Valievich**
pedagogika fanlari nomzodi, dosent

Rasmiy opponentlar: **Olimov Muhsinbek Sotivoldiyevich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Talipjanov Asqar Inamjanovich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertasiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 13 05 soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jsu.uz, e-mail: info@jsu.uz, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "E" binosi, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertasiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0173 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76).

Dissertasiya avtoreferati 2025-yil "10 05 kuni tarqatildi.
(2025-yil 19 09 dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi).



R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d.(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo sport amaliyotida barcha sport turlari singari futbolda ham to‘plangan ilg‘or pedagogik tajribalar sportchilar tayyorlash tizimining bosqichlari, musobaqa faoliyatining natijaviyligi, sport takomillashuv bosqichlarida sportchilarning o‘quv mashg‘ulot jarayonlarining tuzilmasini ishlab chiqish samaradorligi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi va mashg‘ulot o‘tkazishning innovatsion texnologiyalarni joriy etish talabini qo‘ymoqda. Futbolchilarning texnik-taktik xususiyatlari va emotsional holatlarini baholashning metodik asoslarini takomillashtirish, futbolchilarning funksional holati, texnik tayyorgarligi musobaqalashuv taktikasi va futbolchilarni psixologik tayyorlashning asoslari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar dunyo mamlakatlarida olib borilmoqda. Ammo, futbolchilarning texnik-taktik harakatlarining xususiyatlarini va emotsional holatini baholash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish masalasi har bir zamon va davrda o‘z dolzarbligida qolmoqda.

Jahon sporti hamda futbolning taraqqiyoti jamiyat yuksalishining asosiy omillaridan bo‘lgan va XXI-asr futbolining muammolaridan sanalgan futbolchilarni texnik-taktik va psixologik tayyorlash masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy sportning rivojlanishi uchun esa ilg‘or tajribalarni professional darajada qollash va sport mashg‘ulotlarining turli bosqichlarida boshqarishning ilmiy-metodik asoslarini yanada rivojlantirish zarur. Natijada futbolda raqobatbardosh faoliyat samaradorligini ta‘minlash uchun malakali futbolchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish muammosi shakllantirilmog‘da. Mashg‘ulotlar samaradorligi futbolchilarning ruhiy barqarorligiga ham bog‘liqligi va futbolchi uchun zarur bo‘lgan asosiy ruhiy fazilatlar, kundalik mashg‘ulotlar jarayonida faol raqobat faoliyatida shakllanadi va takomillashtiriladi. Bu esa futbolchilarni texnik-taktik va psixologik tayyorlash jarayonini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish muammosi mavzuni dolzarbligini namoyon etmoqda.

Respublikamizda futbolni aholi o‘rtasida keng ommaviy sport turiga aylantirish zarurati esa, yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish, terma jamoalar uchun o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini samarali tashkil etish, mamlakatimizda futbol bo‘yicha yirik xalqaro musobaqalar, jumladan; o‘smirlar, yoshlar va xotin-qizlar jamoalari o‘rtasida jahon va qit‘a birinchiliklarini o‘tkazish¹ vazifalari ado etishni ta‘qozo etadi. Ularni tayyorgarligini rivojlantirish uchun bugungi zamon talablariga mos shart-sharoitlarni yaratib berish, sport mashg‘ulotlarini yuqori saviyada tashkil etish, mashg‘ulot jarayonlarini boshqarish va rejalashtirish, ular orasidan iqtidorli, istiqbolli sportchilarni izlab topish va saralash asosida ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga yo‘naltirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilishini talab etmoqda.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-son “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-son “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018- yil 16-martdagi PQ-3610-son “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda futbolchilarni tayyorlashda, ularning psixologik tayorgaligini hisobga olgan holda, texnik va taktik mahoratini takomillashtirish bo‘yicha olimlardan R.I.Nurimov, Sh.T.Iseev, A.I.Talibjonov, A.R.Akromov, F.O.Po‘latovlar, futbolchining texnik tayyorgarligi, jismoniy qobiliyatni har tomonlama tarbiyalash, va futbolchilarni psixologik tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha E.G.G‘oziev, Z.G.Gapparov, J.M.Ishtaev, Sh.U.Abidov, M.N.Umarov, N.M.Yusupov² singari yetuk olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlardan A.P.Yeliseyev³, V.M.Genkovskaya, A.P.Zolotarev, V.Z.Ivasev, K.Izard, V.Klarin, B.M.Kogan, Dj.Grinberg, R.M.Zayganov, M.Z.Gaziyeva, G.D.Babushkin singari psixodiagnosti

² Nurimov R.I. Futbol nazariyasi va uslubi. Darslik. R.I. Nurimovning umumiy tahriri ostida. T.: «Ilmiy texnika axboroti–press nashriyoti», 2018. -316 b; Akromov R.A. Futbol. Darslik. Toshkent, O‘zDJTI nashriyoti, 2006.

-218 b; G‘oziev E.G. Psixologiya, - Toshkent, O‘qituvchi, 1992. - 95-105 b; G‘oziev E. Umumiy psixologiya. - T. O‘qituvchi, 2010. - 510 b.; Gapparov Z.G., Xolmuhammedov R.D. Boks murabbiyining individual dars olib borishdagi maxsus malakalarini takomillashtirish // Barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning roli. — Buxoro: 2002. - B.79-82; G‘aziyeva Z. Sport komandasida jipslikni tadqiq etishning ahamiyati // «XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari»ni o‘rganishga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar. Toshkent, 2012. - B. 28-139; Гаппаров Г. Иштаев Ж.М., Абидов Ш.У., Садиков А.У., Умаров М.Н., Хасанова Г.М. Психология спорта высших достижений. Учебное пособие.-Т.: илмий техника-пресс нашриёти, 2018. - 16-22 b; Юсупов Н.М. Ўзбекистон маҳаллаларида болалар футболнинг ривожини // Fan-Sportga. – 2020. – №. 3.-С 51-53;

³ Елисеев А.П. Психологическая устойчивость в ЧС. Словарь-справочник. - Новогорск, 2000.-230 с; К.Изард. Эмоции человека. Эмоции человека. Санктпетербург : "Санктпетербург", 2001. - 220-235 с; Генковская В.М. Особенности саморегуляции как нормы психической устойчивости в стрессовых ситуациях: Автореф. дис. канд. психол. наук. Киев, 2000. –24 с; Золотарев А.П., Ивасев В.З. Инновационные направления в технико-тактической подготовке юных футболистов: метод, рекомендации. Краснодар, 2000. -27 с.; Коган Б.М. Стресс и адаптация - М.: Знание, 2003..56-57- С; Головкин В.В. Факторы, обеспечивающие эффективность соревновательной деятельности квалифицированных спортсменов в мини-футболе: автореф. дис.... канд. пед. наук / СПбГУФК. Санкт-Петербург, 2002. - 24 с; Гринберг Дж. Г85 Управление стрессом. 7-е изд. — СПб.: Питер, 2002.-496с; Загайнов Р.М. Внутренний мир как внутренний феномен личности спортсмена / Р.М. Загайнов.-М,2005. -136-159 с; Газиева М.З. Стрессоустойчивость личности как предмет психолого-педагогического изучения, 2008. -125-154 с; Г.Д.Бабушкин. Психология физической культуры. Москва, "Спорт", Вол. Учебник. - 2016.-456-560 с.

kaning yetuk olimlari, ilmiy uslubiy adabiyotlarda sportchilarni psixologik tayyorlash va emotsional stresslarning xususiyatlari yuzasidan o'z tadqiqotlari natijalari bilan o'rtoqlashganlar.

Xorijiy olimlaridan kanadalik patafizolog psixologiyada stressning turlarini kashf va xavola etgan Gans Sel'e, R.S.Weinberg, G.D.Gould, R.H.Koks, O.T.Orlick, H.L.Hardy, J.G.Jones, D.D.Gould⁴ kabi olimlar sportchilar va futbolchilarning emotsional holatini baholash, texnik-taktik tayorgarligini sifatini nazorat qilish hamda harakat faoliyatini samaradorligini aniqlashda psixologik faoliyat va stresslarni xususiyatlarini musobaqalar davrida stresslarni yengib o'tishning uslublarini o'z ilmiy adabiyotlarida yoritganlar va natijalarini taqdim etganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Namangan davlat pedagogika institutining 2022-2024 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari istiqbolli rejasining "Futbolchilarning texnik-taktik mahoratlarini, emotsional xolatlariga bog'liqligini baholashning metodik asoslarini takomillashtirish (16-17 yoshli o'smilar misolida)" mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini xususiyatlari hamda emotsional holatini baholash metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

futbol akademiyalari 16-17 yoshli futbolchilarning o'yin paytida ko'rsatgan texnik va taktik mahoratlarining samaradorligini, shuningdek ularning psixologik holatlari bilan qanday bog'liqligini aniqlash hisobiga emotsional stresslarga bardoshlilik darajasining oshirish;

futbolchilarni mashg'ulotlar va musobaqalar davomida texnik-taktik mahoratlarining ijobiy yoki salbiy oqibatlarini emotsional holatlarga bog'liqligini takomillashtirilgan sportchini emotsional holatini baholash metodini tajribada sinab asoslash hisobiga futbol amaliyotda qo'llash uslublarini kengaytirish;

16-17 yoshli futbolchilarning emotsional holatini aniqlash uchun organizmni stressga bardoshli yoki bardoshsizligini ko'rsatuvchi psixodiagnostik metodi parametrlari va shkalalarini ishlab chiqish hamda kategoriyalarga ajratish hisobiga psixoemotsional ko'rsatkichlarning mavjud qiymatlarini tizimli ro'yxatga olish imkoniyatlari kengaytirish;

futbolchilarni emotsional holatini baholash bo'yicha takomillashtirilgan metodini mobil kompyuter ilovalarini ishlab chiqish hisobiga, mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonlarida murabbiylar uchun mustaqil ravishda baholash imkoniyatlari kengaytirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona vodiysining futbol akademiyalari 16-17 yoshli futbolchilarning mashg'ulot va musobaqa jarayonlari tanlab olingan. **Tadqiqotning predmetini** futbol akademiyalarining 16-17 yoshli futbolchilarning,

⁴ Weinberg, R. S., & Gould, D. Foundations of Sport and Exercise Psychology 2018. - 285-310 p.; Cox, R. H. Sport Psychology: Concepts and Applications. 2011. - 67-89 p.; Orlick, T. In Pursuit of Excellence: How to Win in Sport and Life Through Mental Training. 2008.- 45-76 p; Hardy, L., Jones, G., & Gould, D. Understanding Psychological Preparation for Sport: Theory and Practice of Elite Performers. 1996. -66-69 p.

musobaqalar hamda mashg'ulotlar jarayonida texnik-taktik tayorgarligini va emotsional holatini baholash uslublarining mazmuni, shakli hamda vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi va psixologik test, pedagogik nazorat, pedagogik tajriba, instrumental tajriba va matematik-statistik uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

futbol akademiyalari 16-17 yoshli futbolchilarining o'yin paytida ko'rsatgan texnik va taktik mahoratlarining samaradorligini, shuningdek ularning psixologik holatlari bilan bog'liqligini aniqlash hisobiga emotsional stresslarga bardoshlilik darajasini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

futbolchilarning mashg'ulotlar va musobaqalar davomida texnik-taktik mahoratlarini ijobiy yoki salbiy oqibatlarini emotsional holatlarga bog'liqligini takomillashtirish orqali o'yinda yuqori faollik darajasi va emotsional holatini nazorat qilish samaradorligi oshirilgan;

6-17 yoshli futbolchilarning emotsional holatini aniqlash uchun organizmni stressga bardoshli yoki bardoshsizligini ko'rsatuvchi psixodiagnostik metodi parametrlari va shkalalarini toifalarga ajratish hisobiga psixoemotsional ko'rsatkichlarning mavjud qiymatlarini tizimli ro'yxatga olish imkoniyatlari kengaytirilgan;

futbolchilarni emotsional holatini baholash bo'yicha takomillashtirilgan metodini mobil kompyuter ilovalarini ishlab chiqish hisobiga sportchilarni turli mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonida murabbiylar tomonidan operativ tarzda baholash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot ishida Farg'ona vodiysi futbol akademiyalari va respublikada faoliyat olib borayotgan yosh futbolchilarining texnik-taktik tayorgarligini va emotsional stresslarning ta'sirini o'rganish jarayonida futbolchilarni stresslarga tez yo'liqishi-sportchining shaxsiy harkter sifatleri, emotsional yuklar, depressiyalar, jaroxat stresslarini va emotsional noxushliklarni yengib o'ta olmaslik futbolchilar faoliyati voqeliklari ilmiy adabiyotlar natijalari asosida qiyosiy tahlili taqdim etilgan;

dissertatsiya materiallaridan, oliy o'quv yurtlari Jismoniy madaniyat fakultetlari bakalavrlari va magistrleri uchun maxsus kurslar tashkil etish va futbolga ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabalari xususiy futbol maktablarida futbolchilarni tayyorlash bo'yicha murabbiylarga uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasi va uslubiyati, dialektik bilish uslubi hamdamamlakatimiz va chet el olimlarning, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi amaliyoti sohasida xizmat ko'rsatgan amaliyotchi murabbiylarning ilmiy qarashlari bilan asoslanganligi, bir-birini o'zaro to'ldiradigan, tadqiqotning vazifalariga mos keladigan tadqiqot usullarining qo'llanilganligi, tadqiq qilinadigan kontingent va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, tadqiqot ishlari va sinovlarning

oshkoraligi, pedagogik tadqiqot davomiyligi, tadqiqot natijalariga ishlov berishda matematik-statistik usublarning qo'llanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan pedagogik tajribalar asosida olingan tadqiqot natijalari, futbolchilarni texnik-taktik tayorgarligini tekshirish usullari va takomillashtirilgan psixodiagnostik SEHB - metodi va hisoblash formulasi, O'zbekiston Respublikasi shaharlardagi futbol akademiyalari va bolalar va o'smirlar sport maktablari futbolchilarini musobaqa va mashg'ulotlar davridagi emotsional holatini baholash va emotsional stresslarni nazorat qilish bo'yicha muammolarini tahlil qilish mexanizmlari to'g'risidagi bazaviy nazariy bilimlarni bo'yitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati futbol akademiyalari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, ixtisoslashgan bolalar o'smirlar sport maktab internatlarining futbolchilar tayyorlash bo'limlari futbolchilarni texnik-taktik tayorgarligini tekshirish usullarini qo'llash va futbolchilarni tanlab olish, musobaqalarga tayyorlash hamda musobaqlar davridagi emotsional stresslarga bardoshlilikni tarbiyalashda, stresslarga beriluvchanligini oldini olishda, yangicha metodologik yondashuvlarni ta'minlashi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Futbolchilarning texnik-taktik harakatlarining xususiyatlarini va emotsional holatini baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish asosida,

futbol akademiyalari 16-17 yoshli futbolchilarning emotsional holatini baholash uchun mashg'ulotlar jarayonida texnik-taktik mahoratlarining darajasi samaradorligini aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar Farg'ona vodiysii futbol akademiyalari mashg'ulotlariga tadbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya sport vazirligining 2025 yil 28-iyundagi 03-16/6537-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy stresslarga bardoshlilik darajasi 12.5% ga yaxshilangan;

16-17 yoshli futbolchilarning stress holatini aniqlash uchun organizmni stressga bardoshli yoki bardoshsizligini ko'rsatuvchi «SEHB» metodi parametrlari va shkalalarini ishlab chiqish va kategoriyalarga ajratish bo'yicha taklif va tavsiyalar Namangan viloyati futbol akademiyasi mashg'ulotlariga tadbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya sport vazirligining 2024 yil 28-iyundagi 03-16/6537-son ma'lumotnomasi). Natijada Namangan FA jamoasi har bir o'yinda o'rtacha 878,4±18,06 texnik-taktik harakatlardagi (TTX) nuqsonlar 29,65 % ga kamayganini qayd etgan;

futbolchilarni emotsional holatini baholash asosida musobaqa va mashg'ulotlar davomida Spilberg-Xanin metodi asosida takomillashtirilgan «SEHB» metodini tajribada asoslab berish bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon viloyati futbol akademiyasi mashg'ulotlariga tadbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya sport vazirligining 2024 yil 28-iyundagi 03-16/6537-son ma'lumotnomasi). Natijada Andijon FA jamoasining har bir o'yinda o'rtacha TTX, nuqsonlar darajasi 0,72% ga kamaygan;

futbolchilarni emotsional holatini baholash bo'yicha takomillashtirilgan «SEHB» metodini mobil kompyuter ilovalarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va

tavsiyalar Namangan viloyati futbol akademiyasi mashg'ulotlariga tadbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya sport vazirligining 2024 yil 28-iyundagi 03-16/6537-son ma'lumotnomasi). Natijada futbolchilardan "Adaptatsiya" guruhi 13.4. % dan 17.6% ga o'sgani "Abuliya" guruhi 30.4% dan 8.6% foizga pasayganini "Abasiya" guruhi 21.3% foizi dastlabki ko'rsatkichdan 4.3% foizga pasayish kuzatilgan, "Aversiv" musobaqa davrida stresslarda uzoq qoluvchlar guruhi 43.0% dan 36.6% ga pasaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining mavzusiga oid bo'lgan 14 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar, xalqaro OAK jurnalida 1 ta maqola, respublika OAK jurnallarda 2 ta, xalqaro va O'zbekiston Respublikasi ilmiy –amaliy anjumanlarida 11 ta tezis va maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishida kirish, to'rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi, 119 betni tashkil etib, 39 ta jadval, 8 ta rasm, ilovalar va joriy etish dalolatnomalarni o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslab berilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Futbolchilarining texnik-taktik tayyorgarligini hamda emotsional holatini baholash samaradorligini nazorat qilishning metodlari"** deb nomlangan birinchi bobida, sport musobaqasi o'z mohiyatiga ko'ra, futbolchining muayyan musobaqalarga tayyorgarlik davridagi o'quv-mashg'ulot faoliyati natijalarini yaxshilab borishlari kerakligi. Texnik tayyorgarlikni aloxida ko'rib chisish mumkin emas. U texnik yechimlar sportchining jismoniy, aqliy, taktik va boshqa imkoniyatlari, shuningdek, sport harakati amalga oshiriladigan o'ziga xos atrof-muxit sharoitlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir butunning tarkibiy qismi sifatida taqdim etilishi kerak sport musobaqalari sportda mukammallikka erishish jarayonining ajralmas qismi ekanligi to'g'risida so'z boradi.

Adabiyotlarning qiyosiy tahlili natijalari bugungi kunda futbolchilarni psixologik tayyorlash va ularni emotsional stresslarga bardoshli etib tayyorlashda qo'llanilayotgan uslublar futbolchilarni jismoniy rivojlanishi, jismoniy sifatlarini rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash orqali futbolchining

emotsional holatini baholash vazifalarini aniqlash imkonini bermaydi, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlari yetarli emasligi, tadqiqot predmeti sifatida to'liq o'rganilmaganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika uslubi, tadqiqotning tashkil qilinishidaularni qo'llash uslubiyati va shartlari batafsil yoritilgan.

Dissertatsiya ishini bajarish va tashkil qilish uchun foydalanilgan ilmiy tadqiqotlar metodlari yoritilgan. Texnik-taktik mahoratning darajasi va ko'rsatkichlaragi o'zgarishlar dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikni va harakat faoliyatini aniqlangan. Alohida stressga bardoshli yoki bardoshsiz futbolchilarning qat'iy miqdoriy parametrlarini olish va ko'rsatkichning mavjud qiymatlarini ro'y xatdan o'tkazishning usullarini yoritilgan.

Dissertatsiyaning tadqiqotlari 3 bosqichda o'tkazildi.

Birinchi bosqich-analitik va metodik bosqich (2021-2022-yillar) mahalliy hamda horijiy adabiyotlari ilmiy mavzuning dolzarbligini o'rganish va ilmiy asoslash. Ilmiy apparat va tadqiqot tadqiqot loyihasini ishlab chiqish, ilmiy farazni yaratish masalalariga bag'ishlangan.

Ikkinchi bosqich-rejalashtirish va amalga oshirish bosqichi (2022-2023-yillar) Namangan viloyatida faoliyat olib boruvchi futbol akademiyalari tarbiyalanuvchilarini texnik-taktik mahorati darajasi va ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikni va harakat faoliyatini aniqlash va futbol akademiyalari futbolchilarning sezilarli populyatsiyasini o'rganish, ularning ota va onalar hamda murabbiylardan **“Ayzenk testi”** anketa so'rovnoma o'tkazildi, qolaversa, Farg'ona vodiysi futbol aradameyilarida shug'ullanuvchi yosh futbolchilarning funksional tayorgarlik ko'rsatkichlari hamda sport natijalari, musobaqa faoliyati natijalari asosida emotsional holatini baholashning metodikasi va mezonlari va me'yorlari tartiblashtirish hisobiga SEHB 4 bosqichli baholash shkalasi ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqich-nazorat va tekshirish bosqichi (2023-2024-yillar) tanlab olingan. Futbol akademiyalari tarbiyalanuvchilarini texnik-taktik mahorati darajasi va ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikni va harakat faoliyatini aniqlash futbol akademiyalari futbolchilarni psixologik tayyorlash bo'yicha tavsiya uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqib testlari takomillashtirilib amaliyotga joriy etildi. Tadqiqotga jalb qilingan futbolchilarning tajriba boshidagi va so'ngidagi ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilish orqali futbolchining emotsional holatini baholash usuli samaradorligi tajribada asoslandi. Tadqiqot davomida qayd etilgan natijalar matematik-statistika usullari orqali hisoblab chiqildi va tahlil qilindi. Tadqiqot so'ngida tavsiya etilgan dasturlarning samaradorligini aniqlash maqsadida qayta testlash amalga oshirilgan, tadqiqotning samaradorligini musobaqa faoliyatiga ta'siri o'rganilgan, olingan ma'lumotlarga asoslangan xulosalar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Spilberg-xanin metodi asosida takomillashtirilgan “SEHB” metodikasining hususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida futbolchilarni psixologik tayyorlash va ularning o'yinlar va musobaqalar davrida harakatlarini modellashtirish, futbolchilar bilan muloqotlarda stresslar va ularni ta'siri ostida

harakatlarni boshqarishga o'rgatishni psixologik ko'rsatmalar kurslarini stresslar darajalari va ularni yengib o'tish bo'yicha ilmiy maqolalar va o'quv adabiyotlarini yaratish zarurligini, soxa olimlari va mutaxassislari tamonidan keng ommaga yetkazishni, mutaxassislik bo'yicha taxsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanmalar taqdim etish maqsadga muvofiqligini ko'p bora olib borilgan izlanishlar natijasidan, sportchini emotsional xaolatini baholash psixodiagnostik metodikasi ishlab chiqildi va ekspert guruhi tamonidan ko'rib chiqib amalda qo'llab ko'rish uchun ijobiy xulosa berildi va SEHB metodikasi quyidagicha bosqichlar ishlab chiqildi. (Spilberg-Xanin o'zini xavotirlanishini aniqlash testini takomillashtirilgan). Sportchini emotsional xaolatini baholash psixodiagnostik metodikasini futbolchilarda qo'llashdan oldin tadqiqotda ishtiok etuvchi futbolchilarni umumiy profayli tuzildi va umumiy ma'lumotlar yig'ildi. Sportchining emotsional holatini baholash baholash psixodiagnostik taxlil qaydnomasi o'rganilagan ko'plab metodikalardan xulosa qilib quyidagicha ilovalar asosida tuzildi. Metodikaning natijalarini aniqligini isbotlash maqsadida hisoblash formulasi ishlab chiqildi va u quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

Sportchining emotsional holatini baholash SEHB metodikasining tavsifi

SEHB = $\frac{K3 \cdot K2 + (p \cdot N)}{K1 \cdot (1+r)}$ = K1, K2, K3- koefitsentlar, r- musobaqalar soni, H- ishtirokchilar soni, p- stress vaziyatlar qaytarilish soni. Yuqoridagi formula asosidagi koefitsentlarning tasnifi quyidagicha ta'riflanadi.

K1-koefitsent, Sportchining musobaqa oldidan raqib jamoa va raqib o'yinchisi haqida ma'lumotlarga ega yoki ega emas ekanligi. Jamoa a'zolarining imkoniyatlari amplua va pozitsiyalarning qanday harakatlana olishi haqida axborotga ega yoki ega emas ekanligi. O'zining pozitsiyasidagi raqibining imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotga ega ekanligini va o'yin faoliyatini boshqarishini baholash koefitsenti aniqlanadi. So'rovnomaga va o'yin amalloyotida so'rovnomaga bergan javoblari asosida faoliyat yurita olishi kuzatiladi va baholanadi.

K2-koefitsent, Ikkinchi signalli stressga tushishi va sportchini faoliyatini mustaxkamlash jarayonida hamda motivatsiya (yo'llanma) berilganda musobaqa davrida kechirib o'tishi kerak bo'lgan ximoya mexanizmi baholanadi.

K3-koefitsent, Sportchining musobaqa davrida stress vaziyatlarda o'z temperamentiga nisbatan emotsional voqealarga, emotsional reaksiya (javob) qaytarishining soni bilan ifodalanadi va o'yin faoliyatini boshqarishini baholash koefitsenti aniqlanadi. Metodikani tuzish jarayonida belgili ishorasi va holatlari, Stresslarga bardoshlilik yoki bardoshsizlik darajalari ishlab chiqildi va darajalarning ballar bo'yicha chegaralari formula natijalarining ko'rsatkichlaridan kelib chiqib ishlab chiqildi. Unga ko'ra belgili ishorasi va holatlari va stresslarga bardoshlilik yoki bardoshsizlik darajalarini nomlashda tibbiy psixologiya terminologiyasidan foydalanildi.

Biz tamonimizdan tuzilgan "SEHB" metodikasining, belgili ishorasi va holatlari, stresslarga bardoshlilik yoki bardoshsizlik darajalari yuqoridagi tibbiy-psixologik terminologiyaga asoslanib quyidagicha darajalar aniqlab olindi. Bu darajalar chegaralari quyidagi jadvalda keltirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Formula bo‘yicha stressga bardoshlilik yoki bardoshsizlik darajasini aniqlash ballari

T/r	O‘yinda faollik darajasi va emotsional holati	Belgili ishorasi va holatlari, Stresslarga bardoshlilik yoki bardoshsizlik darajalari	Bali
1	E _A	“Adaptatsiya” Avtoidentifikatsiya.stresslarga berilmaslik,xotirjamlik.o‘z pozitsiyasi talablarini bajara olish.psixologik tayyorgarligi mavjud ,sharoitga moslasha olish.(Stressga bardoshlilar guruhi)	14 balldan yuqori 16 ballgacha
2	E _v	“Abuliya”Asta xavotirda, tug‘ri qaror qila olmaslik, texnik xatolar mavjud va undan chiqib ketish extimoli bor (Xavotirlanuvchilar guruhi)	9 baldan 13,8 balgacha
3	E _c	“ Abasiya “ Harakatlarni oxiriga yetkazmasligi yoki to‘xtab qolish,xayajonlanish ,oyoq qo‘llarni xolsizlanishi va o‘ziga bo‘ysunmasligi Faoliyatida texnik xatolarga ko‘p yo‘l qo‘yilishi. (Stress tormozlar guruhi)	5 ball dan 8-balgacha
4	E _d	“Aversiv”Xolsizlanish,Xoldan toyish,nafratlanish,har bir vaziyatdan nolish,dipressiyaga tushish.xavflilik darajasini ortib borishi va janjallashishgacha borish.jazo olish(sariq qizil qartochkalar) (Stressda uzoq qoluvchilar guruhi)	0,2 balldan 4 ballgacha

Sportchining emotsional holatni baholash natijasida SEHB metodikasining, belgili ishorasi va holatlari, stresslarga bardoshlilik yoki bardoshsizlik darjalari ballarning shkalasi ishlab chiqildi. U esa quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi. (2-jadvalga qarang)

2-jadval

Sportchining emotsional holatni baholash natijasida ballarning shkalasi

T/r	O‘yinda faollik darajasi va emotsional holati	Belgili ishorasi va holatlari, Stresslarga bardoshlilik yoki bardoshsizlik darajalari	Sportchining emotsional holatni baholash natijasida ballarning shkalasi
1	E _A 13,9balldan yuqori 16 ballgacha	“ Adaptatsiya ” Avtoidentifikatsiya.stresslarga berilmaslik,xotirjamlik.o‘z pozitsiyasi talablarini bajara olish.psixologik tayyorgarligi mavjud ,sharoitga moslasha olish.(Stressga bardoshlilar guruhi)	16,0,15,9, 15,8,15,7,15,6,15,5, 15,4,15,3,15,2 15,115,0,14,9, 14,8,14,7,14,6,14,5,14,4,14,3, 14,2,14,1,14,0,13,9.
2	E _b 9 baldan 13,8 balgacha	“ Abuliya ”Asta xavotirda, tug‘ri qaror qila olmaslik, texnik xatolar mavjud va undan chiqib ketish extimoli bor (Xavotirlanuvchilar guruhi)	13,8,13,7,13,6,13,5,13,4,13,3, 13,2,13,1,13,0,,12,9,12,8,12,7, 12,6,12,5,12,4,12,3,12,2,12,1, 120,11,9,12,8,11,7,11,6,11,5,1 1,411,3,11,2,11,1,10,0,9,9,9, 8,9,7,9,6,9,5,9,4,9,3,9,2,9,1

2-jadvalning davomi

	E_c 5ball dan8- ballgacha	“ Abasiya “ Harakatlarni oxiriga yetkaz- Masligi yokit o‘xtab olish,xayajonla- nish ,oyoq qo‘llarni xolsizlanishi va o‘ziga bo‘ysunmasligi.Faoliyatida texnik xatolarga ko‘p yo‘l qo‘yilishi (Stress tormozlar guruhi)	8,0,7,9,7,8,7,6,7,5,7,4,7,3,7,2, 7,17,0,6,9,6,8,6,7,6,6,6,5,6,4,6 ,3,6,2,6,16,0,5,9,5,8,5,7,5,6,5, 5,5,4,5,3,5,2,5,1?5,0,4,9,4,8,4, 7,4,64,5,4,4,4,3,4,2,4,1
4	E_d 0,5 baldan 4 ballgacha	“ Aversiv ”Xolsizlanish,Xoldan toyish,nafratlanish,har bir vaziyatdan nolish,dipressiyaga tushish.xavflilik darajasini ortib borishi va janjallashishgacha borish.jazo olish(sariq qizil qartochkalar)(Stressda uzoq qoluvchilar guruhi)	4,0,3,9,3,8,3,7,3,6,3,5,3,4,3,2, 3,1 3,0,2,9 2,8,2,7,2,6,2,5,2,4, 2,3,2,12,0,1,9,1,8,1,7,1,6,1,5, 1,4,1,3,1,2,1,11,0,0,9,0,8,0,7, 0,6,0,5

Stressda uzoq qoluvchilar guruhini baholashning ikkinchi metodikasi.

Sportchining musobaqa faoliyatida emotsiyaga berilishining xavflilik darajasiga chiqishi (dipressiya, disstress)holatini emotsiya va stressga bardoshsizlik darajasini aniqlilik koefitsentini qayta tuzildi va uning formulasi ishlab chiqildi

$$K4 = \frac{K3(s.d)*K2(c.d)*P}{K1(s.d)*(1+n)} = K4$$


koefitsent ,4-daraja, P-musobaqalar soni n-stress vaziyatlarni musobaqalarda qaytarilish soni. Sportchining musobaqa faoliyatida emotsiyaga berilishining xavflilik darajasiga chiqishi dipressiya, disstress holatini emotsiya va stressga bardoshsizlik darajasini baholaydi (3-jadvalga qarang).

3-jadval


Formula bo‘yicha emotsional stressga bardoshsizlik darajasini aniqlash ballari

T/r	O‘yinda faollik darajasi va emotsional holati	Belgili ishorasi va holatlari Stresslarga bardoshsizlik darajalari	Bali
1	E_A	“ Abuliya ” Asta xavotirda, tug‘ri qaror qila olmaslik, texnik xatolar mavjud va undan chiqib ketish extimoli bor (xavotirlanuvchilar guruhi)	9 balldan 13,8 ballgacha
2	E_c	“ Abasiya “ Harakatlarni oxiriga yetkazmasligi yoki to‘xtab qolish,xayajonlanish ,oyoq qo‘llarni xolsizlanishi va o‘ziga bo‘ysunmasligi. Faoliyatida texnik xatolarga ko‘p yo‘l qo‘yilishi.(Stress tormozlar guruhi)	5 balldan 8-ballgacha
3	E_v	“ Aversiv ”Xolsizlanish,Xoldan toyish,nafratlanish,har bir vaziyatdan nolish,dipressiyaga tushish.xavflilik darajasini ortib borishi va janjallashishgacha borish.jazo olish(sariq qizil qartochkalar) (Stressda uzoq qoluvchilar guruhi)	0,5 balldan 4 ballgacha

K4-kofitsentlar SEHB metodikasining surovnomalar qismining E_c va E_v qismidagi savollarga javoblar olinsa va o'yin malaiyotida futbolchining xulq atvori va o'yinda ishtiroki hamda savollarga bergan javoblari bo'yicha harakat qiladimi yoki aksincha holat yuz berishi natijalarini bilan belgilanadi va daloatnoma qaydnomani oxirgi qismlarida qayd etilib natijalar ballari sportchining musobaqa faoliyatida emotsiyaga berilishining xavflilik darajasiga chiqishi (dipressiya, disstress)holatini emotsiya va stressda uzoq qoluvchilar darajasini baholash formulasi $K4 = \frac{K3(s.d)*K2(c.d)*p}{K1(s.d)*(1+p)}$ = o'zgarishlari musobaqlarga ishtirok davomlarida kuzatib boriladi. Yuqorida ko'rsatilgan metodika asosida futbolchilarni emotsional holatlari musobaqalar davrida o'rganib chiqildiva quyidagicha dastlabki natjalarni ko'rsatd.(1-rasmga qarang)



1-rasm. Namangan futbol akademiyasi U-14 SEHB baholashning 2022-yil martagi dastlabki natijasi (n=23)




2-rasm. NFA U-14 jamoasi har bir futbolchi bo'yicha SEHB baholashning 2022-yil martagi ko'rsatkichi

1-rasmdan U-14 jamoasi futbolchilaridan olingan SEHBning yani sportchilarni emotsional holatlarini aniklash metodikasi bo'yicha 23 nafar umumiy jamoaning natijalari quyidagicha bo'ldi; Adaptatsiya ,Avtoidentifikatsiya stresslarga berilmaslik, xotirjamlik. o'z pozitsiyasi talablarini bajara olish.psixologik tayyorgarligi mavjud ,sharoitga moslasha olish.(Stressga bardoshlilar guruhi) 2 nafari 8,6%ni tashkil etdi. "Abuliya" Asta xavotirda, tug'ri qaror qila olmaslik, texnik xatolar mavjud va undan chiqib ketish extimoli bor (Xavotirlanuvchilar guruhi) 4 nafari 17,2 foiznini tashkil


etdi "Abasiya". Harakatlarni oxiriga yetkazmasligi yoki to'xtab qolish, xayajonlanish oyoq qo'llarni xolsizlanishi va o'ziga bo'ysunmasligi. Faoliyatida texnik xatolarga ko'p yo'l qo'yilishi. (Stress tormozlar guruhi) 5 nafari 21,5 foizni tashkil etdi. "Aversiv" holsizlanish, holdan toyish, nafratlanish, har bir vaziyatdan nolish, Dipresiyaga tushish. xavflilik darajasini ortib borishi va janjallashishgacha borish, jazo olish sariq qizil qartochkalar (Stressda uzoq qoluvchilar) 12 nafari 51,6 foizini tashkil etdi.

Namangan viloyati Futbol akademiyasi U-14 jamoasi futbolchilaridan olingan SEHBning yani sportchilarni emotsional holatlarini aniqlash metodikasi bo'yicha umumjamoaviy emotsional holatning darajasi 8,2 ball "Abasiya" Harakatlarni oxiriga yetkazmasligi yoki to'xtab qolish, xayajonlanish, oyoq qo'llarni xolsizlanishi va o'ziga bo'ysunmasligi. Faoliyatida texnik xatolarga ko'p yo'l qo'yilishi. (Stress tormozlar guruhi)ga tegishli ekanligi namoyon bo'ldi.

Shuningdek Andijon viloyati futbol akademiyasi U-16 jamoasi futbolchilaridan olingan SEHBning yani sportchilarni emotsional holatlarini aniqlash metodikasi bo'yicha (n=23) umumiy jamoaning natijalari quyidagicha bo'ldi. (3-rasmga qarang).



3-rasm. Andijon futbol akademiyasi U-14 jamoasining SEHB baholashning 2022-yil martdagi dastlabki natijasi (n=23)



4-rasm. AFA U-14 jamoasi har bir futbolchi bo'yicha SEHB baholashning 2022-yil martagi ko'rsatkichi

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, Andijon viloyati futbol akademiyasi U-14 jamoasi futbolchilaridan olingan SEHBning yani sportchilarni emotsional holatlarini aniqlash metodikasi bo'yicha 23-nafari umumiy jamoaning natijalari quyidagicha bo'ldi; "Adaptatsiya" Avtoidentifikatsiya, stresslarga berilmaslik, xotirjamlik, o'z pozit-

siyasi talablarini bajara olish.psixologik tayyorgarligi mavjud ,sharoitga moslasha olish.(Stressga bardoshlilar guruhi) 1nafari 4,3%ni tashkil etdi. “Abuliya”Asta xavotirda, tug’ri qaror qila olmaslik, texnik xatolar mavjud va undan chiqib ketish extimoli bor (Xavotirlanuvchilar guruhi) 4 nafari 17,2%ni tashkil etdi. “Abasiya“ Harakatlarni oxiriga yetkazmasligi yoki to‘xtab qolish,xayajonlanish oyoq qo‘llarni xolsizlanishi va o‘ziga bo‘ysunmasligi. Faoliyatida texnik xatolarga ko‘p yo‘l qo‘yilishi.(Stress tormozlar guruhi) 5 nafari 21,5%ni tashkil etdi. “Aversiv” Xolsizlanish, Xoldan toyish,nafratlanish,har bir vaziyatdan nolish, dipressiyaga tushish.xavflilik darajasini ortib borishi va janjallashishgacha borish.jazo olish(sariq qizil qartochkalar),(Stressda uzoq qoluvchilar guruhi) 13 nafari 55,9%ni tashkil etdi. Namangan viloyati Futbol akademiyasi U-16 jamoasi futbolchilaridan olingan SEHBning yani sportchilarni emotsional holatlarini aniklash metodikasi bo‘yicha umumjamoaviy emotsional holatning darajasi 6,2 ball “Abasiya“ harakatlarni oxiriga yetkazmasligi yoki to‘xtab qolish,xayajonlanish ,oyoq qo‘llarni xolsizlanishi va o‘ziga bo‘ysunmasligi. Faoliyatida texnik xatolarga ko‘p yo‘l qo‘yilishi.(Stress tormozlar guruhi)ga tegishli ekanligi namoyon bo‘ldi.

Andijon viloyati Futbol akademiyasi U-16 jamoasi futbolchilaridan olingan SEHBning yani sportchilarni emotsional holatlarini aniklash metodikasi bo‘yicha umumjamoaviy emotsional holatning darajasi 6,7 ball “ Abasiya “ Harakatlarni oxiriga yetkazmasligi yoki to‘xtab qolish,xayajonlanish ,oyoq qo‘llarni xolsizlanishi va o‘ziga bo‘ysunmasligi.Faoliyatida texnik xatolarga ko‘p yo‘l qo‘yilishi.(Stress tormozlar guruhi)ga tegishli ekanligi namoyon bo‘ldi.(4-jadvalga qarang)

4-jadval

Namangan, Andijon,Farg‘ona viloyatlari futbol akademiyalari U-14 jamoalarining stressga bardoshlilik darajasining umumjamoaviy ko‘rsatkichlarini farqlari (tadqiqot boshida)

Futbol Akademiyalari jamoalari	K3	K2	p	n	K1	1+p stress austress yoki distress)	K3+,K2 +,p*n	K1,+ p	SEHB bali
Namangan	9.9	10,1	10	23	10,3	8,3	2320,2	18,6	8,2
Andijon	9,9	10,1	10	23	10,3	7,4	1133,1	17,7	6,7
Farg‘ona	9,8	10,0	10	23	10,1	7,2	1129,1	17,5	6,4
Farqlar	0	0	0	0	0	-0,9	93.1	1,1	0.5

